

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT
INSTITUTI**

“KOSTYUM DIZAYNI” KAFEDRASI

Komilov Umidbek

**O'zbek milliy kostyumi elementlaridan foydalanib erkaklar ustki liboslar
to'plami dizayn loyihasini ishlab chiqish**
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi

Ilmiy rahbar: t.f.n.dots . Muminova U .T.

TOSHKENT 2018

Mundarija

Kirish.....	
1. Loyiha oldi qismi	
1.1. Liboslar to'plami konsepsiyasini ishlab chiqish.....	
1.2. Erkaklar ustki kiyimi bo'yicha istiqbolli moda yo'nalishi tavsifi.....	
1.3. Marketing tadqiqotlar.....	
1.4. Erkaklar ustki kiyimiga qo'yiladigan talablar.....	
1.5. Ijodiy manbaani tanlash, asoslash va uslublash.....	
2. Loyiha qismi	
2.1. Eskiz loyihalash	
2.1.1. Liboslar to'plami kompozitsion yechimi va koloristik qatorini tanlash.....	
2.1.2. Yakunlovchi eskizlarni yaratish va modellarni texnik tavsifini ishlab chiqish.....	
2.1.3. Texnik eskizlarni yaratish.....	
2.2. Kolleksiya loyihalash usulini tanlash va asoslash.....	
2.3. Konstruktor - texnologik qism	
2.3.1. Kolleksiya uchun materiallar paketini konfeksiyalash.....	
2.3.2. Konstruksiyalash usulini tanlash va asoslash.....	
2.3.3. Buyum asosiy detallar chizmalarini qurish uchun dastlabki ma'lumotlar.....	
2.3.4. AK va BK hisobi va qurish.....	
2.3.5. AK va BK konstruktiv - dekorativ modellashtirish.....	
2.3.6. Ishchi hujjatlarni ishlab chiqish.....	
2.3.6.1. Yangi modellar andozalarini tayyorlash tamoyillari tavsifi.....	
2.3.6.2. Andozalar joylashmasi.....	
2.3.7. Texnologik ishlov berish xususiyatlari.....	
2.4. Kolleksiya reklama loyihasini ishlab chiqish	
2.4.1. Nom tanlash (Brand-name).....	
2.4.2. Kolleksiya reklama loyihasini ishlab chiqish.....	
3. Mehnat muhofazasi va ekologiya qismi.....	
Xulosa.....	
Adabiyotlar ro'yxati.....	
Ilovalar	

Kirish

Mustaqillik davrida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotimizda jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Hozir ham bu jarayon davom etmoqda. Bunda tabiiyki yengil sanoat va moda industuriyasi dizaynerlarning faoliyati ham mustasno emas. Bugungi kunda o'zbek dizaynerlarining faoliyati jiddiy sifat o'zgarishlarini boshdan kechirmoqda. Yuqori sifat va mukammal dizan asosida yaratish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi. Bular jumlasiga: Davlat va jamiyatni takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud huquq tizmini yanada isloh qilish; Xavfsizlik millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish[1].

Harakatlar strategiyasining uchinchi yo'nalishi: Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish; liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash; yuqori iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash; yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolis; milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirish; qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish; iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarini davom ettirish; xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish; kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish; hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy iqtisodiy taraqqiy ettirish; investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etishdan iboratdir[1].

Bu harakatlar strategiyasini amalga oshirishda xorijiy sarmoyadorlarni jalb etish, yangi investitsiyalar olib, jahon standartlariga mos keladigan mahsulotlarni ishlab chiqarish va uni chet davlatlarga eksport qilish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bozorlarni mahalliy mahsulotlar bilan to'ldirish, faqatgina

xomashyo emas, balki tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun tadbirkorlarga qulayliklar yaratilmoqda[2].

O'zbekiston Respublikasi o'zining mustaqil taraqqiyot yo'liga asoslangan holda bozor iqtisodiyotiga to'la ishonch bilan o'tib bormoqda. Bugungi kunda rivojlanishning yo'liga o'tish, ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishda samarali qo'llash, yangi texnologiyalardan keng foydalanishgina iqtisodiy o'sishning jadalligini, davlatlarning jahon hamjamiyatidagi raqobatbardoshligini, ularning iqtisodiy xavfsizligi hamda jahon iqtisodiyotiga teng huquqli integratsiyalashuvi darajasini belgilab beradi.

Yengil sanoat sohasida o'zgarishlar korxonalarni qayta qurish va yangi uskunalar bilan taminlash ishlab chiqarishning zamonaviy uskunalari bilan taminlash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Barchamiz yaxshi anglab olishimiz zarurki, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilmasdan turib, tashqi bozorlarga chiqish va mahsulotlarimizni sotish borasidagi eksport dasturini amalga oshirish, valyuta daromadlari tushumini ta'minlash, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni va ish o'rinlarini tashkil etish, pirovard natijada o'z oldimizga qo'ygan yuksak maqsadlarimizga erishish haqida so'z yuritish mumkin emas. Ma'lumki, O'zbekiston jahon bozorida xomashyo resurslarining, masalan, paxta va boshqa turdagi xomashyolarning narxi keskin tushib ketgan holatlarni ko'p marotaba boshidan kechirgan. Shu bilan birga, to'qimachilik va yengil sanoatning boshqa tarmoqlarida ana shu paxta xomashyosini yanada chuqur qayta ishlashni ta'minlash, bo'yalgan ip kalava, trikotaj polotnosi va matolar kabi tayyor mahsulotlarni xorijiy mamlakatlarga eksport qilish, keyinchalik, zamonaviy texnologiya va dizaynni faol o'zlashtirish asosida, tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda ulkan samaraga erisha olamiz[3].

Mavzuning dolzarbligi. Biz zamonaviy moda rivojlangan davrda yashamoqdamiz. Jahon dizaynerlari tomonidan yangi turdagi bichimlar, hashamdor naqshlar kiyimlar, noodatiy bezaklar bir biri bilan o'zaro raqobatda. Ayniqsa bunday naqshlar ustki kiyimda qo'llanilgan bo'lsa. Bizning jamiyat

oldidagi ma'suliyatimiz faqat sifatigagina emas, balki insonni madaniy saviyasini ham ko'tarishga e'tibor qaratishimiz kerak. Biz dunyo modasiga o'z milliy naqsh elementlarimiz, milliy bichimlarimiz va shu bilan birga o'zimiz kashf etgan yangidan yangi kreativ g'oyalarimiz va bichimlarni taklif etishimiz lozim. Milliy elementlarni yanada talabbop bo'lishi va aktuallasishi uchun zamonaviy usuldan foydalanildi. Ushbu bitiruv malaka ishining asosiy dolzarbligi shundaki hozirgi zamonaviy moda ommalashgan bir paytda, naqshlarni turli xil usul va texnikada ko'rsatib berish maqsadga muvofiqdir.

Bitiruv malaka ishining maqsadi: O'zbek milli kostyumi elementlaridan foydalanib erkaklar ustki liboslar to'plami dizayn loyihasini ishlab chiqish. Kolleksia ishlab chiqishning asosiy maqsadi-aholini moddiy va ruhiy talablarini qondirish va buyumlarni ijtimoiy maqbulligidadir.

Bitiruv malaka ishining vazifalari: O'zbek milli kostyumi elementlaridan foydalanib erkaklar ustki kiyimi kontseptsiyasini ishlab chiqish; erkaklar ustki kiyimlari bo'yicha istiqbolli moda yo'nalishi o'rganish; marketing tadqiqot o'tkazish; erkaklar ustki kiyimiga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish; ijodiy manbani asoslash va uslublash; liboslarni kompozitsion yechimi va ranglar uyg'unligini tanlash; taklif modellarni yaratish; materiallarni tanlash va paketini konfeksiyalash; tanlangan model uchun konstruksiya qurish va modellashtirish; ishchi hujjatlarni ishlab chiqish va andazalrni yaratish; andozalar joylashmasi va gazlamlar sarfini aniqlash; BREND–NAME tanlash va liboslar to'plami reklamasini ishlab chiqish.

LOYIHA OLDI QISMI

1.1. Liboslar to'plami kontsepsiyasini ishlab chiqish

Moda - bu tabiatdan doimo o'zgarib turuvchi san'at turidir. Ammo aynan doimiy evolyutsiya, eski moda yo'nalishlarini qaytalash va uni yangi ko'rinishga keltirib borish moda sanoatini betakror va ko'rkam bo'lishiga sabab bo'ladi.

Kontsepsiya (lotincha conceptio- tushuntirish, g'oya, asosiy fikr)- ma'lum xodisa bo'yicha sistematik ko'rish tizimi, asosiy g'oya, asarni g'oyaviy fikri.

Dizaynda kontsepsiya – asosiy g'oya, maqsadlarni, vazifalarni va vositalarni ma'naviy yo'nalishidir[4]. Yanikim biron bir to'plam yaratilishidan oldin dizayner o'z oldiga aniq bir maqsad qo'yib, o'zining g'oyasini shakllantiradi. Ushbu g'oya har tomonlama puxta o'ylanib chiqiladi. Xar bir kolleksiya yaratilishidan oldin turli fikrlar tug'iladi. Fikrlar yig'ilib ma'lum bir g'oyani tashki qiladi. Kontsepsiyani asosini tayanch nuqtasida g'oya turadi

Konseptuallik- bu loyiha madaniyatining mohiyatini asoslaydigan umumiy ijodiy ko'rsatmadir. Ijodiy kontsepsiya loyihaning qiymati va ma'naviy mazmunini belgilaydi. Ijodiy kontsepsiyaning mazmuni va xarakteri nafaqat muallifni shaxsiy dunyoqarashi bilan balki loyiha madaniyati va jamiyatini rivojlanish asosiy raqobatlari bilan bog'liq. Dizayn insonlarning ehtiyojini hisobga olishi zarur va ular muamolarini yechishda o'z hissasini kiritish lozim[5].

Ushbu bitiruv malaka ishini bajarishda erkaklar klassik uslubidagi liboslarini milliylik bilan uyg'unlashtirib, zamonaviy libos to'plamini yaratishdir. Mazkur vazifani yechishda Buxoro xonlarining "zar chopon"lari(1.1-rasm) va amirlarining shohona ustki kiyimlaridagi naqshlardan(1.2-rasm) foydalangan holda, zamonaviylik ruhini berish asosiy maqsad qilib olindi.



1.1-rasm. Buxoro xonlari XIX asr 20-yillar.



1.2-rasm. Buxoro amiri XIX asr 20-yillar.

1.2.Erkaklar ustki kiyimi bo'yicha istiqbolli moda yo'nalishi tavsifi.

Kolleksiani yaratishda mahalliy va xorijiy yetakchi dizaynerlarning 2018-2019 yillar uchun yaratilgan liboslar assortimenti o'rganildi. Biz 2018-2019 yillar kuz-qish mavsumida erkaklar kiyimlarini taqdim etgan dizaynerlarning ishlarini tahlil qilindik va 6 ta asosiy biznes yo'naloshini aniqlandi(1.3-rasm);

- Biznes kostyumlari svitr bilan –ko'p qatlamli ko'rinish
- Katakli va yo'l-yo'l
- Kalta kurtka va pidjaklar
- Velvet va barxatdan biznes kostyumlari
- Ikkita ko'krakdagi biznes kostyumlari [6].(1.4-rasm)




1.3-rasm. 2018-2019 Giorgi Armani, Versace, Alexander.

2018-2019 yil liboslarini tahlil qilish jarayonida dizaynerlar axromatik ranglar bilan bir qatorda xromatik ranglardan ham keng foydalanganlar. Ular liboslar to'plamlarining konsepsiyasi, ijodiy manbadan kelib chiqqan holda to'plamlarining ranglar palitrasini, siluet qatorlarni tuzib chiqdilar.



1.4-rasm. 2018-2019 McQueen, Valentino Hermes kolleksiyalari.

Dekorativ bezaklarga to'xtaladigan bo'lsak, bu yillarda dizaynerlar munchoq, piston, kashta, tosh, har xil pechatlardan keng va o'ziga xos usulda foydalanganlar. Har bir dizayner o'zining ishlash usuli va yo'nalishidan kelib chiqib bezaklardan foydalangan.(1.5-rasm)



1.5-rasm. Dolce & Gabbana, Dior, Giorgio, Armani kolleksiyalari.

2018-2019 yilgi erkaklar modasi bo'yicha moda naqishlari yorqin rangdagi bezaklardan geometrik shakillardan va erogliflardan foydalanilgan.(1.6-rasm)



1.6-rasm. Dolce & Gabbana, Giorgio Armani va Moschino kolleksiyalari.

Yana bir aktual ko'rinish- **velvet va barxat**. Bu to'qima mato 80-yillarda juda ham mashhur bo'lgan. Hozirgi kunda mazkur matolardan ishlangan liboslarni turli dizanerlar kolleksiyalarida ko'rishimiz mumkin. 2018- yil esa aynan barxat matosi yili bo'ldi. Ayniqsa zardo'zlik texnikasi mazkur matoda chiroyli ko'rinadi. Dolce Gabbana, Hermes, Trussardi, Roberto Cavalli va Giorgio Armani kolleksiyalari bunga yorqin misol bo'la oladi[7].(1.7-rasm)



1.7-rasm. Dolce & Gabbana, Giorgio Armani, Valentino, Hermes va Moschino kolleksiyalari.

1.3.Marketing tadqiqotlar (o'xshash modellar tahlili.).

Marketing tadqiqotlari deganda marketing faoliyatining turli jihatlari bo'yicha ma'lumotlarni sistemali yig'ish, tartibga solish va tahlil qilish tushuniladi. Marketing tadqiqotlari marketologlarni axborotlar orqali bozor, iste'molchilar, raqobatchilar va marketing tashqi muhitining boshqa elementlari bilan bog'lovchi funksiya hisoblanadi [8].

Bozor munosabatlari tobora chuqurlashib borayotgan bugungi kunda har bir korxona uchun marketing tadqiqotlari o'tqazishning ahamiyati beqiyosdir. Chunki, marketing tadqiqotlariga asoslanib, korxonalar mahsulotlariga bo'lgan talabni va bu mahsulotning raqobatbardoshligi qanday ekanligi haqida ma'lumotlar oladilar.

Bozorni tadqiq qilish–marketing tadqiqotlarining eng ko'p tarqalgan yo'nalishidir. U korxona faoliyatini belgilash uchun bozor shart–sharoitlari haqida ma'lumot olish uchun o'tkaziladi. Marketing tadqiqotlari korxona faoliyati haqidagi noaniqliklari kamaytirishga yordam berib, korxonaning samarali faoliyati haqidagi noaniqliklarni kamaytirishga yordam berib, korxonaning samarali faoliyatini ta'minlaydi.

Iste'molchilarni tadqiq qilish-iste'molchilar tovarlarni tanlaganida rahbarlik qilishga undovchi omillar (daromadlar, ijtimoiy ahvol, jinsiy yoshga doir tuzilma ma'lumot) ning butun majmuini aniqlash va tadqiq qilishga imkon beradi. Iste'mol tarkibi (tuzulmasi), tovarlar bilan ta'minlanganlik, xaridorlar talabi tendensiyalari o'rganiladi.

Tadqiqot obyektlari-bir xil (analog) tovarlarning va raqobatchilarning tovarlarining iste'mol xususiyatlari iste'molchilarning yangi tovarlarga munosabati assortimenti, o'ram (upakovka), servis darajasi, mahsulotning qonuniy me'yorlar va qoidalarga muvofiqligi, iste'molchilarning istiqboldagi talablari.

2018-yildagi bozorni tahlil qilganda shu bu yil oddiylik, har-xil milliy naqshlarga bo'lgan talab ortmoqda. Kundalik kiyimdan tortib to ish kiyimlari va xattoki maxsus kiyimlarda ham naqshlarni ko'rishimiz mumkin.Tahlil natijalarida istemolchilar sifatiga kata etibor berishmoqda. Marketing tadqiqotlariga ko'ra 60%

istemolchilar internet magazinlaridan foydalanishmoqda. Ulardan eng mashhurlari qatoriga “Alibaba.uz”, “Al Expres.com”, “OLX.uz” va boshqalar kiradi.

Dolce & Gabbana ham kolleksiyalari o'ziga hosligi bilan butkul ajralib turadi. Dolce & Gabbana o'z kolleksiyalarida ko'plab bezaklar, naqshlardan, kashta turlaridan, aplikatsiyalardan juda o'rinli foydalangan. Uning kolleksiyalaridagi ranglar gammasi bezaklar bilan uyg'unlashib ketgan. U ko'proq tilla rangdagi, kumush rangdagi bezaklardan foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. U kolleksiyasida asosiy urg'uni naqshlarga bergan, bezaklar esa unga yanada bashanglik berib turibdi. (1.8-rasm)



1.8-rasm. Dolce & Gabbana 2018-2019-yil kuz qish kolleksiyasi.

2018-yil yildagi bozorni tahlil qilganda shu bu yil oddiylilik, har xil milliy naqshlarga talab ortdi. Kundalik kiyimdan tortib klassik uslubidagi kiyimlarda ham bu usullarni ko'rishimiz mumkun. Ustki kiyimlarda oddiy, sodda, va qomatga qumsoat shaklidagi siluetdagi pidjaklar urfda. Bozorni tahlil qilganda ustki kiyimlarda har xil milliy va zamonaviy naqshlardan keng foydalanilganligini

ham kuzatishimiz mumkin (1.9-rasm). Bozorni taxlil qilinganda shu ma'lum bo'ldiki hozirgi kunda erkaklar ustki kiyimlar borasida ko'proq klassik va cejual uslubidagi pidjaklarni afzal ko'rishmoqda. Bunga sabab harakatning qulayligi hamda kundalikda kiyganda sifatini tez buzulmasligi va qulayligida. (1.10-rasm).



1.9-rasm.Chet el bozoridagi na'munalar

2018-yil O'zbekiston bozorida liboslarni tahlil qilish jarayonida istemolchilar axromatik ranglar bilan bir qatorda xromatik ranglardan ham keng foydalanishmoqda. (1.11-rasm)



1.10-rasm. O'zbekiston bozorida na'munalar



1.11-rasm. Maxalliy bozordagi axromatik rangdagi namunalar

Bozorni tahlil qilganda erkaklar klassik uslubidagi kiyimlarda har xil milliy va zamonaviy matolardan keng foydalanilganligini ham kuzatishimiz mumkin. Bu matolar asosan O'zbekistonda va Xitoyda ishlab chiqarilayotgan matolardir. Bularga: beqasam, banoras, adras (o'zbekistonda ishlab chiqariladi), sherst, lion, sintetka, viskoza, denim (xitoyda ishlab chiqariladi) va boshqa matolar kiradi.(1.12-rasm)





1.12-rasm. Mahalliy savdo markazlaridagi mato namunalari

1- jadval

2- Erkaklar ustki kiyimining konstruktiv-dekorativ yechimlari taxlili

Konstruktiv-dekorativ yechimi	Tehnik rasmi					
Siluet						

Yenglar turi						
Yoqa turlari						
Cho'ntak turi						

1.4.Erkaklar ustki kiyimiga qo'yiladigan talablar

Kiyimni sifatini baholash uchun iste'molga oid sifat ko'rsatkichlari va texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarga bo'linadi. Iste'molga oid ko'rsatkichlar deb, insonning buyumni iste'mol qilish jarayonidagi muayyan talablarni qondirishga qaratilgan buyum xossalari tushuniladi. Iste'molga oid ko'rsatkichlarga ijtimoiy, funksional, estetik, ergonomik, eksplutatsion ko'rsatkichlar kiradi [9].

Estetik talab jumlasiga model konstruksiyasining badiiy butunligi, mukammaligi va zamonaviy moda talabiga javob berishi hamda haridorgirligi kiradi. Estetik hususiyatga ega bo'lgan libos foydali buyumga aylanadi.

Ergonomik talab jumlasiga buyumni eksplutatsiya qilish davrida inson uchun qulaysharoit yaratuvchi, uni toliqtirmaydigan sharoit tug'diruvchi faktorlar kiradi. Yani yaratilgan libos inson faoliyati, harakatlanishiga birmuncha qulay, ishlab chiqarilgan matosi havo o'tkazuvchanlik darajasi yetarlicha bo'lishi lozim. Ustki liboslarda asosan issiqlikni saqlab turuvchi qalin va tabiiy matolardan foydalanish inson salomatligida kata ahamiyat kasb etadi.

Funksional talabda model aniq bir vazifaga mo'ljallangan iste'molchining antropometrik o'lchamlari guruhiga mos bo'lishi kerak. Ayni buyumning vazifasi modelga, uning konstruksiyasiga va materiallariga qo'yiladigan talablarni shakllantira oladi. Funksional talabda ishlab chiqilgan modelning aynan qanday funksiyalarni bajarishini hisobga olgan holda matolarning to'g'ri tanlanishi, bichimning to'g'ri tanlanishi, siluetning tog'ri tanlanishi o'lchamlarga mos holda amalga oshirilishi lozim.

Eksplutatsion talab buyumni foydalanish jarayonida yaroqlilik holatini uzoq muddat davomida saqlanib turish qobiliyati. Bunda model o'z shaklini saqlovchanligi, matolarning chidamliligi, biriktiruvchi choklarning uzilishga chidamliligi kabi talablarga javob berishi kerak.

Ushbu liboslar to'plami uchun talablar quyidagi tartibda belgilanadi:

- Estetik,
- Ergonomik,

- Eksplutatsion.

1.5.Ijodiy manbaani tanlash, asoslash va uslublash

Dizayner kostyum kolleksiyasini yaratishda ijodiy manbaa sifatida har qanday tabiiy hodisalar, buyum muhitining turli elementlari, dunyoda sodir bo'layotgan voqealar, musiqa, rangtasvir, adabiyot, balet , teatr, sirk, kino, tomosha tadbirlari, etnikmavzular, me'morchilik, muhandislik inshootlari, mashina detallari, turli mexanizmlar, maishiy buyumlar, amaliy san'at asarlari (shisha, tosh, yog'och, metall, keramika va b.), musiqa asboblari, yer fakturasi, yulduzli osmon, origami o'yini, ekologiya, tarixiy, xalq va klassikkostyumlar, eklektika usuli, parodiya usuli, stilizatsiyalash usuli va h.k. dan foydalanish mumkin[10].

Har bir dizayner o'z faoliyatining muayyan bosqichida tarixiy va xalq an'analari bilan ilhomlanib, ijodiy manbaalarga murojat qiladi.

Ijodiy jarayon - shakl va mazmun birligini jamlash uchun muhim. Ba'zan yangi va qiziqarli ijodiy manbaa topish muammoga aylanadi. Bu an'anaviy dizayn usullari yordamida hal qilinadi. Shuning uchun loyiha dizayner ijodiy fikrlashiga va dizayn jarayonining kuchaytirishi, rivojlantirishga qaratilgan.


Butun dunyo bo'ylab dizaynerlar dizaynning har bir sohasida yangi g'oyalar qidirayptilar (sanoat mahsulotlari, kiyim-kechak, uy-ro'zg'or buyumlari yoki qadoqlash dizayn bo'lsin), birinchidan, yangi mahsulotlar yaratish, ikkinchidan zamonga mos bolish uchun. Tovarlarini ishlab chiqaruvchi firmalarga qiziqarli g'oyalar muhim va yangi original g'oyalar cheksiz emas. Bu qidiruv usullarida rassom-dizaynerlari yordam beradi.

Hozirgi davr zamonaviy liboslari loyihasini ishlab chiqishda shuni yodda tutish kerakki, eng asosiy ijodiy manbaa doimo inson, uning tashki ko'rinishi va ichki dunyosi bo'lib qoladi. Aynan inson libos modellari yaratilishining asosiy obyekti hisoblanib, asosiy vazifa- uning tashqi ko'rinishini mukammallashtirish, insonda did va estetik tarbiyasini shakllantirishdir.

Oddiy va bashang uslublardan biri bo'lgan Klassik kostyumlari o'ziga ishonchi kuchli, o'zining shaxsiy fikriga ega, qatiyatli va etibor markazida bo'lishni xush ko'ruvchi yuqori toifa erkaklar uchun mo'ljallangan . Mazkur uslub

bilan ishlash jarayonida o'zining jamiyatdagi yuqori pog'ona egasi ekanligini yoki aks holda bachkanalik va didsizlik tarafdori ekanligini namoyon etish hech gap emas. Bundan kelib chiqadiki, Klassik uslubi bilan ishlashda meyor qoidalariga qattiq rioya qilish talab etiladi.

Tanlangan texnika: Zardo'zchilik. Zardo'zlik san'ati o'zining uzoq tarixiga ega bo'lib, deyarli barcha Sharq mamlakatlari uning vatani hisoblanadi. Pliniyning aytishicha, Vavilon kashtachiligi qadimdan mashhur bo'lib, matoga turli rangdagi iplar bilan kashta tikishni o'sha yerda kashf etishgan. Keyinchalik Vavilon Rim imperiyasi tarkibiga kirgach, zar, ipak yoki jun ip qo'shib tikilgan rang-barang kashtachiligi bilan shuhrat qozongan[11]. Ayni shu davrdan boshlab zardo'zchilik Bobil, Hindiston, Xitoy, Yevropa turli hududlariga tarqala bordi. Demak zardo'zchilik faqatgina Osiyo davlatlariga tegishli deyish unchalik to'g'ri bo'lmaydi. Ayni shu ma'lumotlar asosida mazkur kolleksiya klassik uslubida, Samarqand- Buxoro zardo'zchilik naqishlari elementlaini o'zaro sintez qilish yo'li bilan ishlab chiqildi.(1.13-rasm)



1.13-rasm. Samarqand-Buxoro zardo'zchilik naqishlari.

LOYIHA QISMI

2.1. Eskiz loyihalash

2.1.1. Liboslar to'plamini kompozitsion yechimi va koloristik qatorni tanlash

Badiiy loyihalash o'ziga ijodiy manbaani tanlashdan tayyor mahsulotgacha bo'lgan jarayonni qamrab oladi. Liboslarni dizaynini yaratishda kompozitsion yechim va koloristik qatorning ahamiyati kattadir.

Kompozitsiya lot. «composito»-mato naqshlarini yaratish va tuzish. Kompozitsiya-badiiy asar shaklining barcha elementlarini, mazkur asarning obrazli g'oyaviy-badiiy mazmunini ifoda etuvchi uzviy bir butunlikka birlashtirish.[12] Kiyim kompozitsiyasi-kiyim shaklining barcha elementlarini, uning mazmunini ifoda etadigan birlikni barpo etish vositalari yordamida tuzib chiqish. Har qanday badiiy asarda uni tashkil etgan barcha elementlar o'rinli bo'lishi kerak. Kompozitsiya maxsus badiiy tildan iborat bo'lib, uning yordamida san'atkor borliqni aks ettiruvchi g'oya va tuyg'ularni tasvirlab beradi. Kiyimning badiiy obrazi-bu kiyimning aniq vazifasini va borliqni aks ettiruvchi asosiy g'oyani ifodalovchi modelning umumiy qiyofasi. Kostyum kompozitsiyasida naqshning muhim ahamiyati bor. Shaklni naqshdan ajratib bo'lmaydi. Hamonki shaklda naqsh bor ekan demak, naqsh shaklning zarur komponentning bir qismi bo'lib qoladi. Naqsh ham kostyum singari ko'p asrli tarixga ega. U xalqning tarixiy taqdirini, turmush tarzini, tashqi muhitini, iqlimini, fan va texnikani rivojlanishida aks etadi. Kostyumga mato tanlaganda naqshga jiddiy munosabatda bo'lish kerak. Uni yoshga, gavda tuzilishiga, kostyum nimaga mo'ljallanganiga qarab olish kerak [13].

- Kompozitsiyaning asosi quyidagi prinsiplardan tashkil topadi;
- Maqsadga muvofiqlik prinsipi;
- Murakkablikning umumiyligi prinsipi;
- Dominantlikning mavjudligi prinsipi;
- Qismlarning o'zaro bo'ysundirilganlik prinsipi;

- Muvozanat, qismlarning o'zaro muvozanatda bo'lishi prinsipi;
- Dinamizm (harakat – hayot va san'atda asos sifatida);
- Uyg'unlik prinsipi.

Ranglarni odam psixologiyasiga ta'siri. Ranglar inson o'zini tutishiga juda katta ta'sir etadi. Ranglar bizning kayfiyatimizni ko'tarishi yoki aksincha tushirishi ham mumkin. Bu inson ongiga tashqi tomonlama ta'sir etadi. Rangning bunday xususiyatlaridan foydalanib biz har-xil hayotiy hodisalarni o'zimizning foydamizga o'zgartirishimiz mumkin. 1750-yilda 1200 rang birikmalari mavjud bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib ular soni 10 mln. yetdi.


Kostyumning rangli yechimi bo'yicha G. Petushkovaning tahlili quyidagini ko'rsatadi:

- shakl geometriklansa, rang quyuqligi kuchayadi, kontrast yechimlari paydo bo'ladi; shakl plastikligi kuchaysa-o'xshash ranglar birikmasi ustunlik qiladi;
- rang gammasini o'zgarishi rang doirasi bo'yicha ketma-ket, sovuq va iliq ranglar baravariga yoki polixromiya (ko'p ranglik) yetakchi bo'lishi mumkin;
- rang va shakl o'zaro bog'liq. Kostyum rangining tahlili quyidagi hulosaga olib keldi: ranglar muayyan geometrik shaklga intiladi, ya'ni qizil ranglar-to'g'riburchak, ko'k ranglar-oval, yashil ranglar-trapesiya shakliga intiladi.
- ranglarni muayyan shaklga intilishi ularni illyuziyalari bilan bog'liq: shakl kichraysa, kostyum koloritida shaklni moddiyligini va zichligini ko'rsatadigan iliq ranglar, kontrast birikmalar bo'ladi; shakl kattalashsa rang gammasi murakkablashib, sovuq tomonga o'tadi, ular shaklni ko'rinish vaznini va kattaligini kamaytiradi;

Ranglar kompozitsiyada o'ziga xoslik alomatlari bilan ishtirok etadilar. Barcha ranglar majmuasini 3 ta qatorga ajratish mumkin:

- Qora va oq ranglar o'rtasida joylashgan kulrang axromatik tonlar;

- Xromatik ranglar qatorini (spektr ranglar) quyidagi alomatlarga bo'lish mumkin:
- Issiq gamma: sariq, zarg'aldoq, qizil va ularning oraliqlaridagi ranglar;
- Sovuq gamma: yashil, ko'k, binafsha va ularning oraliqlaridagi ranglar;
- Qo'shimcha ranglar–rang doirasidagi bir–biriga diametral ya'ni qarama–qarshi joylashadilar



2.1.1-rasm. Rang doirasi



2.1.2-rasm. Qarama-qarshi joylashgan ranglar


Taklif modellarni yaratayotgan vaqtning o'zida dizayner, hoh oddiy tikuvchi bo'lsin uni qaysi matodan tikishni ko'z oldiga keltirib ko'radi.

Eskiz yaratayotganda avvalambor unga ketadigan matodan tashqari yana qanday furnitura mahsulotlari ishlatilishini ham inobatga olish lozim.

To'plamdagi kiyimlar asosan, o'rta yoshdalar, ofis va oqshom tadbirlariga mo'ljallanganligi uchun, to'q ranglardagi matolar tanlangan va matoni bezab turgan zardo'zlik kashtasi iplari ham, shu matolarning rangidan keskin farq qilmaydigan zardo'zlik iplari bilan kombinatsiyalashgan. Kiyim kompozitsion yechimini ishlab chiqqanda mantiqiy va to'g'ri, did bilan joylashuvini hamda bachkanalashmaslik, nafislik baxsh etishi naqshlarning o'ziga xos joylashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Kompozitsion yaxlitlikni ishlab chiqqanimizda libosning va naqshlarning bir biriga mutanosibligi, ranglar, siuetlar tuzilish va qismlarning yaxlitlik, mutanosiblikdagi uyg'unligi e'tiborga olindi.




2.3-rasm. Zardo`zlik kashtasi iplari.











2.1.2. Yakunlovchi eskizlarni yaratish va modellarni texniktavsifini ishlab chiqish.

Asosiy modelga tavsif.

O'rta yoshli erkaklarga mo'ljallangan klassik uslubidagi kostyumi. Kostyum "bahor-kuz" mavsumidagi, ishbilarmon kishilar uchun mo'ljallangan. Pidjakbop material. Tarkibi: 40% sherst 45% viskoza 10% polestr 5% laykra. Shakli to'g'ri to'rtburchak ko'rinishda bo'lib, yelka va bel kiyimidan iborat.

Yelka kiyimi H turadigan siluetli, uzunligi boksadan pastda surtuk, bir bortli ikki tugma va izmali chap tomonli taqilma, bort qaytarmasi chopon bichimida dekorativ bezatilgan.

- Old bo'lak qirqma yon bo'lakli, old vitichkalar bo'lib, vitchkalar yon cho'ntaklar qirqimiga o'tadi. 3 ta qopqoqli ramochkali yon cho'ntaklar qiya joylashgan qirqimlarda ishlangan. Tepa qismi ko'krakgacha dekorativ naqshlar bezatilgan. Bo'rt etak qismi tog'ri burchakli.
- Ort bo'lak shlitsa bilan tugallangan o'rta chokli, relyefnoy chokli, tepa qismi kurakgacha dekorativ naqishlar bilan bezatilgan, ikki bo'lakdan iborat.
- Yenglar o'tqazma ikki chokli(old va tirsak chokli). Tirsak choklari eng uchidagi ochiq to'rt tugmali shlitsa bilan tugallangan.
- Yoqa o'zbek milliy choponiga mansub tipdagi.
- Surtuk astari – etakgach. Astar mag'izi asosiy matodan bo'lgan to'rtta ichki cho'ntak va kolleksiya brendi ishlangan.
- Kostyumni o'rta to'lalilik guruhdagi 96-104 razmerlar va 164-188 bo'ylarga mo'ljallab tayorlash tavsiya etiladi.

Bel buyumi erkaklar klassik uslubidagi shim. Uzunligi to'piqgacha, nim yopishgan siluetli, etag qismi manjet ishlangan, old va ort bo'lakdan iborat.

- Old bo'lak yon bo'ylama chokli ikki bo'lakdan iborat, taqilma sifatida gulfikli zamok ishlangan. Yon qirqma mag'izli, bezak choklar bilan cho'ntak ishlangan.

- Ort bo'lak o'rta chokli, ikki bo'lakdan iborat, ort vitichkalar bo'lib, mag'izli ramichka cho'ntaklar o'tasida tugallangan. Cho'ntaklarda tugma va izma ishlangan.

2-taklif modelga tavsif.

O'rta yoshli erkaklarga mo'ljallangan klassik uslubidagi kostyumi. Kostyum "bahor-kuz" mavsumidagi, ishbilarmon kishilar uchun mo'ljallangan. Pidsjakkop material. Tarkibi: 40% sherst 45% viskoza 10% polestr 5% laykra. Shakli qum soat ko'rinishda bo'lib, yelka va bel kiyimidan iborat.

Yelka kiyimi nim yopishib turadigan siluetli uzun pidsjak, bir bortli ikki tugma va izmali chap tomonli taqilma, bort qaytarmasi (latskani) keng ovalsimon.

- Old bo'lak qirqma yon bo'lakli, old vitichkalar bo'lib, vitchkalar yon cho'ntaklar qirqimiga o'tadi. Ikkita qopqoqli ramochkali yon cho'ntaklar gorizontall joylashgan qirqimlarda ishlangan. Chap old bo'lakda listochkali yuqori cho'ntak ishlangan. Bo'rt etak qismi ovalsimon.
- Ort bo'lak shlitsa bilan tugallangan o'rta chokli, relyefnoy chokli, ikki bo'lakdan iborat.
- Yenglar o'tqazma ikki chokli(old va tirsak chokli), dekorativ naqishlar bilan bezatilgan. Tirsak choklari eng uchidagi ochiq to'rt tugmali shlitsa bilan tugallangan.
- Yoqa pidsjakkga mansub tipdagi o'tmas burchakli, bezak sifatida izma ochilgan.
- Pidsjak astari – etakgach. Astar mag'izi asosiy matodan bo'lgan to'rtta ichki cho'ntak va kolleksiya brendi ishlanga.
- Bort, latskan, yoqa, etak old bo'lak yon qirqimigacha bezak chok bilan tikilgan
- Kostyumni o'rta to'lalikk guruhdagi 96-104 razmerlar va 164-188 bo'ylarga mo'ljallab tayorlash tavsiya etiladi.

Bel buyumi erkaklar klassikk uslubidagi shim. Uzunligi to'piqqacha, nim yopishgan siluetli, etag qismi manjet ishlangan, old va ort bo'lakdan iborat.

- Old bo'lak yon bo'ylama chokli ikki bo'lakdan iborat, taqilma sifatida gulfikli zamok ishlangan. Yon qirqma mag'izli, bezak choklar bilan cho'ntak ishlangan.

- Ort bo'lak o'rta chokli, ikki bo'lakdan iborat, ort vitichkalar bo'lib, mag'izli ramichka cho'ntaklar o'tasida tugallangan. Cho'ntaklarda tugma va izma ishlangan.

3-taklif modelga tavsif.

O'rta yoshli erkaklarga mo'ljallangan klassik uslubidagi kostyumi. Kostyum "bahor-kuz" mavsumidagi, ishbilarmon kishilar uchun mo'ljallangan. Pidjakbop material. Tarkibi: 40% sherst 45% viskoza 10% polestr 5% laykra. Shakli qum soat ko'rinishda bo'lib, yelka va bel kiyimidan iborat.

Yelka kiyimi yopishib turadigan siluetli uzun pidjak, bir bortli ikki tugma va izmali chap tomonli taqilma, bort qaytarmasi (latskani) kichik ovalsimon.

- Old bo'lak qirqma yon bo'lakli, old vitichkalar bo'lib, vitchkalar yon cho'ntaklar qirqimiga o'tadi. Ikkita qoplama yon cho'ntaklar gorizontal joylashgan qirqimlarni yopib ishlangan. Tepa qismida lojni, dekorativ naqshlar bilan bezatilgan kaketka ishlangan. Bo'rt etak qismi to'gri burchakli. Qoplama cho'ntak bezak chok bilan tikilgan
- Ort bo'lak shlitsa bilan tugallangan o'rta chokli, relyefnoy chokli, ikki bo'lakdan iborat.
- Yenglar o'tqazma ikki chokli (old va tirsak chokli). Old bo'lak ikkiga ajratilib, bo'ylama chokli, tag qismi dekorativ naqishlar bilan bezatilgan. Tirsak choklari eng uchidagi ochiq to'rt tugmali shlitsa bilan tugallangan.
- Yoqa pidjakga mansub tipdagi o'tmas burchakli, bezak sifatida izma ochilgan.
- Pidjak astari – etakgach. Astar mag'izi asosiy matodan bo'lgan to'rtta ichki cho'ntak va kolleksiya brendi ishlangan, bezak sifatida izma ochilgan.
- Kostyumni o'rta to'lalilik guruhdagi 96-104 razmerlar va 164-188 bo'ylarga mo'ljallab tayorlash tavsiya etiladi.

Bel buyumi erkaklar klassik uslubidagi shim. Uzunligi to'piqqacha, nim yopishgan siluetli, old va ort bo'lakdan iborat.

- Old bo'lak yon bo'ylama chokli ikki bo'lakdan iborat, taqilma sifatida gulfikli zamok ishlangan. Yon qirqma mag'izli, bezak choklar bilan cho'ntak ishlangan.

- Ort bo'lak o'rta chokli, ikki bo'lakdan iborat, ort vitichkalar bo'lib, mag'izli ramichka cho'ntaklar o'tasida tugallangan. Cho'ntaklarda tugma va izma ishlangan.

4-taklif modelga tavsif.

O'rta yoshli erkaklarga mo'ljallangan klassik uslubidagi kostyumi. Kostyum "bahor-kuz" mavsumidagi, ishbilarmon kishilar uchun mo'ljallangan. Pidgek material. Tarkibi: 40% sherst 45% viskoza 10% polestr 5% laykra. Shakli to'g'ri to'rtburchak ko'risida bo'lib, yelka va bel kiyimidan iborat.

Yelka kiyimi keng turadigan siluetli uzun pidjak, bir bortli bir tugma va izmali chap tomonli taqilma, bort qaytarmasi (latskani) keng ovalsimon.

- Old bo'lak qirqma yon bo'lakli, old vitichkalar bo'lib, vitichkalar yon cho'ntaklar qirqimiga o'tadi. . Uchta qopqoqli ramochkali yon cho'ntaklar qiya joylashgan qirqimlarda ishlangan. Chap old bo'lakda listochkali, dekorativ naqshlar bilan bezatilgan yuqori cho'ntak ishlangan. Bo'rt etak qismi ovalsimon.
- Ort bo'lak shlitsa bilan tugallangan o'rta chokli, relyefnoy chokli, ikki bo'lakdan iborat.
- Yon bo'lak dekorativ naqshlar bilan bezatilgan.
- Yenglar o'tqazma ikki chokli(old va tirsak chokli), ost bo'lak dekorativ naqishlar bilan bezatilgan. Tirsak choklari eng uchidagi ochiq to'rt tugmali shlitsa bilan tugallangan.
- Yoqa pidjakga mansub tipdagi o'tkir burchakli.
- Pidjak astari – etakgach. Astar mag'izi asosiy matodan bo'lgan to'rtta ichki cho'ntak va kolleksiya brendi ishlanga.
- Kostyumni o'rta to'lalilik guruhdagi 96-104 razmerlar va 164-188 bo'ylarga mo'ljallab tayorlash tavsiya etiladi.

Bel buyumi erkaklar klassik uslubidagi shim. Uzunligi to'piqgacha, nim yopishgan siluetli, etak qismi manjet ishlangan, old va ort bo'lakdan iborat.

- Old bo'lak yon qirqma bo'ylama chokli, dekorativ naqshlar bilan bezatilgan ikki bo'lakdan iborat, taqilma sifatida gulfikli zamok ishlangan. Yon qirqma mag'izli, bezak choklar bilan cho'ntak ishlangan.

- Ort bo'lak o'rta chokli, ikki bo'lakdan iborat, ort vitichkalar bo'lib, o'ng tomoni mag'izli ramichka cho'ntak o'tasida tugallangan. Cho'ntakda tugma va izma ishlangan.

5-taklif modelga tavsif.

O'rta yoshli erkaklarga mo'ljallangan klassik uslubidagi kostyumi. Kostyum "bahor-kuz" mavsumidagi, ishbilarmon kishilar uchun mo'ljallangan. Pidgek bop material. Tarkibi: 40% sherst 45% viskoza 10% polestr 5% laykra. Shakli traotsiya ko'rinishda bo'lib, yelka va bel kiyimidan iborat.

Yelka kiyimi keng turadigan siluetli kaltaroq pidjak, bir bortli ikki tugma va izmali chap tomonli taqilma, bort qaytarmasi (latskani) keng ovalsimon.

- Old bo'lak qirqma yon va kaketka bo'lakli, old vitichkalar bo'lib, vitchkalar yon cho'ntaklar qirqimiga o'tadi Ikkita qoplama yon cho'ntaklar gorizontal joylashgan qirqimlarni yopib ishlangan. Tepa qismida dekorativ naqshlar bilan bezatilgan kaketka ishlangan. Bo'rt etak qismi qiya o'tkir burchakli. Chap old bo'lakda listochkali yuqori cho'ntak ishlangan. Bo'rt etak qismi qiya o'tkit burchakli. Qoplama cho'ntak bezak chok bilan tikilgan
- Ort bo'lak shlitsa bilan tugallangan, qirqma yon va kaketka qisimli, dekorativ naqshlar bilan bezatilgan, relyefnoy chokli, to'rt bo'lakdan iborat.
- Yenglar o'tqazma ikki chokli (old va tirsak chokli), tirsak choklari eng uchidagi ochiq to'rt tugmali shlitsa bilan tugallangan.
- Yoqa pidjakga mansub tipdagi o'tkir burchakli.
- Pidjak astari – etakgach. Astar mag'izi asosiy matodan bo'lgan to'rtta ichki cho'ntak va kolleksiya brendi ishlanga.
- Kostyumni o'rta to'lalilik guruhdagi 96-104 razmerlar va 164-188 bo'ylarga mo'ljallab tayorlash tavsiya etiladi.

Bel buyumi erkaklar klassik uslubidagi shim. Uzunligi to'piqqacha, nim yopishgan siluetli, old va ort bo'lakdan iborat.

- Old bo'lak yon qirqma bo'ylama chokli, dekorativ naqshlar bilan bezatilgan ikki bo'lakdan iborat, taqilma sifatida gulfikli zamok ishlangan. Yon qirqma mag'izli, bezak choklar bilan cho'ntak ishlangan.

- Ort bo'lak o'rta chokli, ikki bo'lakdan iborat, ort vitichkalar bo'lib, o'ng tomoni mag'izli ramichka cho'ntak o'tasida tugallangan. Cho'ntakda tugma va izma ishlangan.

2.1.3. Texnik eskizlarni yaratish.

2.2. Erkaklar ustki kiyimlari to'plamini loyihalash usulini tanlash va asoslash.

Bugungi kunga kelib moda olamida zardo'zlik texnikasining turli xil usullaridan keng foydalanib kelinmoqda. Zardo'zlik texnikasining yangi turlari amaliyotga taqdim qilinmoqda

Loyiha vazifalarni eng optimal variantini qidirish jarayonida dizayner modellash, maketlash, muxandis-hisobi usullarini qo'llaydi.

Dizaynda modellash – bu bir butun ob'yektni yoki ob'yektlar tizimining vaziyatini yoki funksional jarayonini aks etish, tasavvur etish yoki ta'riflab berish jarayonidir. Badiiy siymo, loyiha grafik, retrospektiv, konstruktiv, prespektiv, texnikaviy va kompyuter modellash usullari mavjud.

Loyiha – grafik modellash loyiha g'oyasini yaratishda va aks etishda yordam beradi. Loyiha – grafik – modellash quyidagilarni ko'zlaydi: grafik shaklini loyiha javazifasining ma'nosiga moslaydi; eskiz loyihani variant qidiruv va tajriba harakati; qo'yilgan vazifani yechish uchun, loyiha qidiruvini mantiqiy ketma – ket va tizimli yondashish. Mavjud loyiha g'oyalarni, texnologiyalarni, korxonalarning iqtisodiy, badiiy madaniyat yutuqlarini (me'morchilik, rangtasvir, haykaltaroshlik) inobatga olib, dizayner avval o'z tasavvurida kelajak buyumning eskizini va dastlabki grafik tasvirini yaratadi (qidiruv eskiz, qoralama eskiz). Yangi yechimlarni qidirish va variantlarni tanlanish qog'ozda qilinadi. Keyin buyumning tashqi ko'rinishini ta'rifi va amaliy foydalanish qoidasi aniqlanadi. Natijada loyihalanayotgan buyumning badiiy-uslubiy va rangli-fakturaviy yechimi (eskiz loyiha) va konstruksiyasi, modelning proporsiyasi va silueti to'g'risida to'liq ma'lumot beriladi.

Bugungi kun liboslarda milliy an'analar va Yevropa uslublari uyg'unlashib ketgan. Chunki milliy kiyimlarimiz bizning hayot tarzimizga va iqlim sharoitimizga moslashgan, shu bois, erkak va ayollarning doimiy kiyimlarida ham an'anaviy liboslarda o'z aksini saqlab kelmoqda.

Hozirgi kunda kiyim konstruksiyalashda asosan ikki xil konstruksiyalash usulidan foydalaniladi: mulyaj tizimi va hisoblash- grafikli usulning har xil variantlari.

Mulyaj tizim murakkab konstruktiv shakllarni va modellarning ayrim detallarini qurish uchun ishlatiladi. Bu tizim bo'yicha detallar konstruksiyasi gazlama yoki qog'ozni odam qomatiga yoki manikenga qadash tufayli olinadi, so'ngra qog'ozni tekislikda yoyib detallar konturi chiziladi va chiziqlar tutashmasi tekshiriladi.

Hisoblash-grafikli konstruksiyalash tizimi bo'yicha eskizda berilgan model konstruksiyasi qomat o'lchamlari ularga muvofiq qo'shimchalar asosida tuziladi. Hozirga qadar konstruksiyalashda xilma-xil "chizmal" usullar mavjud. Ishlatiladigan usullar asosan hisoblash formulalar tarkibi va grafikli qurish usullari bilan farqlanadi[]

Ushbu to'plam bajarishda bir necha usullarni o'rganilgan holda hisoblash usuli tanlab olindi va ushbu usulni qo'llagan holda to'plam yaratildi.

2.3. Konstuktiv -texnologik qism

2.3.1 Erkaklar ustki liboslar to'plamini materiallarpaketini konfeksiyalash.

O'zbekistan Respublikasi Evroosiyo kontinentining markaziy qismida shimoliy kenglikning o'ttiz yettinchi – qirq beshinchi, graduslari va sharqiy uzunliklarning ellik oltinchi va etmish uchinchi graduslari orasida joylashgan; uning umumiy maydony 447,4 ming km² ga teng.

O'zbekiston Shimolda va G'arbda Qozog'iston bilan, Janubda Turkmaniston va Afg'oniston, Sharkda esa Tojikiston va Qirg'iziston bilan chegaradoshdir.

Respublika tengsiz ikki qismga bo'linadi: 78,8 foizi - tekisliklar, qolgan 21,2 foizi-tog'lar va tog'lararo cho'nqirlar.

Respublika hududi Osiyoning quruq zonasiga kiradi.Uning 70 foizdan ko'prog'i iqlimiy o'zgarishlarga moyil sahro va yarim dashtlardan iborat.

O'zbekistonning geografik joylashishi va iqlimi. Kuz–qish mavsumida nomo'tadil iqlim odam organizmiga o'zgacha ta'sir etadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Markaziy Osiyo Respublikalarida ushbu muammo jiddiy ahamiyatga ega. Keng miqyosda o'tkazilgan ilmiy izlanishlar Markaziy Osiyo hududiga taalluqli iqlimiy gidrologik, gigiyeniklik va ekologik muammolarga bag'ishlangan. Hozirgi vaqtga qadar mazkur territoriyaga oid iqlimiy rayonlashtirishning variantlari ishlangan bioiqlimiy kartalar komplekti tuzilgan, turli iqlimiy va bioiqlimiy ta'riflar mavjud. Regionga hos atmosfera jarayonlarining xususiyatlarini o'rganish maqsadida tadqiqotlar o'tkazilmoqda[15]. Libos mo'ljallangan hudud O'rta Osiyo sharoiti uchun mo'ljallanganligi sababli materialning gigroskoplik, havo va suv o'tkazuvchanlik, xususiyatlari yuqori ko'rsatkichli bo'lishi kerak.

2.1-jadval

№	Mato nomi	Mato tarkibi		Qalinligi		To'qilishi	Eni	Og'irligi
		Tanda	Arqoq	Tanda	Arqoq			
1.	Pidjakbop mato	Sherst	Viskoza	220	410	polotno	400	400
2.	Astar matosi	Suniy ipak	Suniy ipak	66	50	polotno	1400	

3.	Qotirma	Kapron	Viskoza	520	410	polotno	150	80
----	---------	--------	---------	-----	-----	---------	-----	----

2.3.2. Konstruktsiyalash usulini tanlash va asoslash

Ushbu to'plamni yaratishda italyan konstruktsiyalash uslubi Antonyo Donnano metodi tanlandi. Italiyan metodikasining boshqa metodikalardan ajralib turadigan jihati, ulardagi konstruktiv qo'shimchalarning gradusda berilganligidadir. Italiyan metodining konstruktiv qo'shimchalari quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

0 gradus – ichki kiyimlar uchun qo'shimcha;

1 gradus – ko'ylak, shim, futbolka uchun;

2 gradus – pidjak, jaket, nimchalar uchun;

3 gradus – vetrovka, plashlar uchun;

4 gradus – palto, kurtka, dublyonkalar uchun;

Ushbu metodika tipaviy va notipaviy qomatlarga chizmalarni tayyorlash jarayonida paydo bo'luvchi qiyinchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha tavsiyalardan iborat. Shuningdek, detal chizmalari balansini va mos kelishini tekshirish bo'yicha noyob metodika keltirilgan bo'lib, ular orqali maket matosida tayyorlangan birinchi namunaning bichilish o'lchamlarining to'g'riligini tekshirish va qomat ustida tekshirib ko'rish mumkinligi jarayonlarini amalga oshirish mumkin (Ilova 5 - rasm).

Italiyan metodikasi modellashtirishning va konstruktsiyalashning noyob usullarini yaratishda dizayner g'oyasini rivojlanishiga imkon beradi

2.3.3. Erkaklar pidjaki asosiy detallar chizmasini qurish uchun dastlabki ma'lumotlar

Tipaviy figura o'lchamlari(178-104-96)

2.2.-jadval

	O'lchamlar soni	Shartli belgisi	Qiymati
	Ko'krak aylanasi	Circonferenza totace	104
	Bo'ksa aylanasi	Circonferenza bacino	105
	Bel aylanasi	Circonferenza vita	96
	Orqa kengligi	Larghezza spaile dietro	46
	Yelkadan belgacha	Lunghezza vita	48,4
	Orqa yeng o'mizi balandligi	Altezza cavallo	24,8
	Bo'yin aylanasi	Circonferenza collo	44
	Kiyim uzunligi	Centro	100

AK qurish uchun qo'shimchalar

2.3.-jadval

	Qo'shimchalar nomi	Shartli belgisi	Qiymati, sm
	Ko'krak aylanasing qo'shimchasi	ΠΟΓIII	10
	Yelka kengligining umumiy qo'shimchasi	ΠIIIπ	1,5
	Orqa kengligining umumiy qo'shimchasi	ΠIIIc	1,5
	Konstruksiya maydoninig umumiy qo'shimchalarning taqsimlanishi	Πc	0,5
		Ππ	0,3
		Ππρ	0,3
	Yeng o'mizi qo'shimchasi	ΠΒπρз	3,5

2.3.4. AKvaMK hisobi va qurish.

Asos konstruktsiya chizmasining hisobi (178-104-96)

2.4.-jadval

№	Belgilanishi	Xisobi	Qiymati, sm
1	2	3	4
1	A-B	Lunghezza vita +1sm	49,4
2	B-C	Semicircon torace+vestibilita	45,6
3	C-D	Come A-B	81
4	D-C1	Lunghezza giacca	21
5	B-B1	Come C-C1	14,85
6	B1-C1	Come B-C	7,425
7	B-E	Mata B-C	8,5
8	B1-E2	Come B-E	2
9	A-F	Come B-E	22
10	D-H	Meta D-C+0,5	2
11	E2-E3	Cm.6.	2
12	Q-Q2	Come E2-E3	1,5
13	B-Y	e E-X Altezo fianco	5,5
14	D-G	mate Larghezza spalle+vastibilita	0,5
15	H-L	¼ di D-H	2,5
16	H-H1	Come D-G	57,5
17	I-I1	Come D-G 0,5 del dietro	2
	Dietro		

18	H-H1	cm.16	5,75
19	H-H2	cm.0,6	2,5
20	G-O	cm.4	8
21	D-N1	1/3 di D-G+1	9
22	N-P	cm.2,3	
23	P-P1	Lunghezze spalla+1	
24	Q2-Q3	cm.2,5	
25	E1-W	cm.3,5	
26	C-C3	cm.1,2-1,7	
27	C1-C2	come C-C3	
28	E3-E4	cm.2	
Davanti			
1	A-U	Meta di A-J1 meno cm.0,5	
2	A-U1	cm.8	
3	U-U2	cm.2	
4	I-S1	cm.12. I-I2 cm.16	
5	I1-I3	cm.4,5 B-B3 come I-I2	
6	B-B5	Come I-I1	
7	J1-V	cm. 4	
8	U-Z	Come P-P1 del dietro meno 1	
9	Q-Q1	cm.2	
10	Q2-Q4	cm.3	
11	E-W1	cm.3	
12	E3-E5	cm.2	
13	U1-U3	cm.3-3,5	
Yeng			
1	A-E	Come Settore Base Gaicca +1/2 Settore + cm.1	
2	A-B	Misura Lunghezza manica	
3	A-G	Come misura L1-P1-1 della base del corpino dietro	
4	A-N	Mata A-B	
5	A-M	½ di AE+1c	
6	M-M1	1/3A-G	
7	A-I	1/4A-E	

8	G-H	cm.2,5	
9	X-L	mata G-X	
10	L-L1	meta H-L	
11	L1-L2	cm.0,5	
12	G-O	cm.1,5	
13	G-G1	cm.2,5	
14	E-E2	cm.1,5	
15	B1-B2	cm.2	
16	B3-B2	e N-N1 cm.2,5	
17	B2-R	1/2Lunghezza fondo manice	
18	B2-B4	Come B2-B3	
19	B4-R1	Cm.0,5	

2.3.5. AK va MK ni konstruktiv-dekorativ modellashtirish.

2.3.6. Ishchi hujjatlarni ishlab chiqish.

2.3.6.1. yangi modellar andozalarini tayyorlash

Detallar andazalarining chizmasi bu ularning konstruksiyasini, shakli va o'lchamlarini, ishlov berish hamda bichishdagi texnik shartlarini ifodalaydigan texnik hujjatdir. Andazalarning chizmasi buyumni tuzuvchi barcha detallarga, konstruktorlik hujjatlarning yagona sistemasi talablariga muvofiq tayyorlanadi [22].

Kiyim detallari andazalarining chizmasi konstruksiyaning model xususiyatlari kiritilgan texnik chizma asosida tavsiya qilingan materiallar xususiyatlari haqidagi va ularga texnologik ishlov berish usullari to'g'risidagi ma'lumotlar yordamida tuziladi. Andazalar chizmasi quyidagi ketma-ketlikda bajariladi:

- konstruksiya chizmasi batafsil tekshiriladi;
- chizmaga gazlamaning kirishuvchanligi bilan bog'liq aniqliklar kiritiladi;
- detallar chizmasining nusxalari boshqa qog'ozga tushiriladi;
- asosiy detallar andazalarining ishchi chizmasi quriladi;
- hosila va yordamchi andazalarning ishchi chizmalari quriladi;
- ishlab chiqarishda foydalanishga mo'ljallangan andazalar chizmasidan andazalar shablonlari tayyorlanadi.

Qayd etilgan ketma-ketlik quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Konstruksiya chizmasini tekshirish maqsadida old va orqa bo'laklar, qirqma yon bo'lak, yenglar, ostki yoqa singari asosiy detallarning nusxasi maxsus moslama yordamida chizmadan qalin qog'ozga ko'chiriladi va qirqib olinadi. Qirqib olingan andazalar shablonida ko'krak, bel, bo'ksa chiziqlari, old o'tar chizig'i, vitachkalar, cho'ntaklar chizig'i va boshqa asosiy konstruktiv chiziqlar belgilanadi.

Andazalar shabloni yordamida konstruksiya chizmasida biriktiriladigan qirqimlarning tengligi, konstruktiv qirqimlar tutashmalari, nazorat kertiklar joylarining detallarda o'zaro mosligi tekshiriladi.

2.3.6.2. Andozalar joylashmasi

2.3.7. Liboslar to'plamining texnologik ishlov berish xususiyatlari

2.4.Liboslar to'plami reklama Loyihasini ishlab chiqish.

2.4.1.Nom tanlash (BRAND NAME).

Brend-bu raqobatchilardan farqlanish maqsadida aniq sotuvchi yoki sotuvchilar guruhining tovarlari va xizmatlarini belgilash uchun qo'llanadigan so'z, ifoda, belgi, simvol, dizaynerlik ishi yoki ularning kombinasiyasidir.

Moda industriya sohasida reklama muhim o'rin egallaydi. Reklama va biron narsa haqida ommaga ma'lumot berish, savdo yetakchisidir. Har bir iste'molchi o'z shaxsiy ehtiyojlariga ega, betakror shaxsdir. Iste'molchining umumlashtirilgan tavsiyasini yaratish uchun birinchi qadam, uning muayyan guruh, yoshlar, ayollar, ziyolilar, ishchilar va hokazolarga mansubliklari bo'lishi mumkin. Hozirgi kunda har bir iste'molchi o'z uslubiga ega bo'lishni ho'xlaydi.[9].

Brend – aniq bir ishlab chiqaruvchining tovarlari yoki xizmatlarini identifikatsiya qilish, shuningdek, uni raqobatchilar mahsulotidan differentsiya qilish uchun mo'ljallangan nom, termin, simvol, rasm yoki shu elementlarning kombinasiyasidir [10].

Ushbu liboslar to'plami uchun brand-name ishlab chiqishda yuqoridagi fikrlarga tayanildi. Brand-name “L & Monsieur” deb nomlandi. Shior “Italiyan texnologiyasi asosida” deb tanlandi. Har bir inson birinchi navbatda o'z ko'rinishiga jiddiy e'tibor berishi va shu bilan birga uni qaysi tabaqaga mansubligi ,qaysi kasb egasiga tegishliligini kostyum ko'rsatib beradi.



2.4.2. Kolleksiya reklama loyihasini ishlab chiqish.

Ko'p ming yillar davomida reklama insoniyatning doimiy hamroxi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda.

“Reklama” atamasi lotincha “reclamare” so’zidan olingan bo’lib, “qattiq qichqirmoq”, “habar qilmoq” ma’nolarini bildiradi. Reklamaning ta’rifi ko’p. Jumladan, xorij adabiyotida reklama, asosan marketing nuqtai nazaridan talqin etiladi. Masalan, Xalqaro reklama assotsiatsiyasining ta’rifiga ko’ra, reklama: “g’oyalar, tovarlar yoki xizmat turlarining aniq buyurtmachi tomonidan haq to’langan holda noshaxsiy taqdim etilishi va oldinga qarab siljishining har qanday shaklidir”.

Reklama – bu axborot tarqatishning pullik shakli bo’lib, u tovarni yoki xizmatni hajmini ko’paytirish maqsadida buyurtmachi tomonidan berilgan informatsiyani jamiyatga yetkazish usuli hisoblanadi.

Reklama quyidagi vazifani bajaradi:

- Axborot beruvchi yangi tovar, firma aniq hodisa to’g’risida aniq ma’lumot beradi;
- Bildiruvchi tovar yoki firmaga sekin-asta iste’molchilarni e’tiborini ko’paytirish, bilimlarini oshirish va shu tovarni sotib olishga undash;
- Eslatuvchi haridlar orasida tovarni qayerdaligini unutmaslik va tovar to’g’risida axborotni esda tutishni ta’minlaydi.
- Reklamani yaratish quyidagi bosqichlardan iborat:
- Iste’molchilarni o’rganish, reklama qilinadigan tovar yoki xizmatlarni o’rganish va bozorni o’rganish;
- Reklama vositalarini ishlatish, ishlab chiqarish, maqsadni aniqlash va qo’yish, bozor chegaralarini belgilash va ijodiy yondashuvni ishlab chiqish;
- Reklama vositalarini tanlash va ularga sarflanadigan harajatlarni hisoblash. Narx va e’lonlarni ko’rsatish grafiklarini ishlab chiqish;
- E’lonlarni mazmunini tuzish, badiiy bezatish va ishlab chiqarish .

- Reklama turlari bo'yicha quyidagilarga bo'linadi:

- Televidenie va radioreklama;
- Banner reklama;
- Suviner yoki buyumli reklama;
- Direkt meyl;

Tashqaridagi (narujnaya) reklama: brandmauerlar, videopanellar, siti format, yo'l ko'rsatkichlar, tranzit reklama, reklama, laytboksif, chiroqli panellar.

Reklama turlaridan buklet, flayer va bannerlarda tasvirlangan reklamalardan ham foydalanildi. Ushbu to'plam uchun banner usuli tanlandi va kolleksiya reklama loyihasi ishlab chiqildi.

Bundan tashqari To'plam uchun reklama turlaridan:

- tashqi reklama;
- matbuotdagi reklama;
- TV dagi reklama;
- internetdagi reklama;

bannerlardan keng foydalanildi.[20]

3. Mehnat muhofazasi va ekologiya qismi.

Korxonalarda mehnatning sog'lom va xavfsiz ish sharoitlarini ta'minlash.

Korxonalarda xavfsizlikni ta'minlash va ish sharoitlarini yaxshilash ma'muriyatning asosiy vazifasi sifatida mehnat qonunlarida yozib qo'yilgan.

Ma'muriyat tarkibiga kiruvchi rahbar xodimlar, ya'ni xo'jalik ishlari bilan shug'ullanuvchi, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qiluvchi, ishlab chiqarishdagi xodimlarni boshqaruvchi, moddiy mablag'larni taqsimoti zaruriy texnik tadbirlarga ishlatish va uni nazoratini olib boruvchi shaxslar kiritiladi.

Ma'muriyat xodimlarining xavfsiz va sog'lom ish sharoitlarini tashkil qilish talablari hamda majburiyatlari shundan iboratki, ular xavfsizlikni ta'minlash davlat siyosati va uni so'zsiz amalga oshirish davlat va xalq manfaatlarini yaxshi tushungan bo'lishlari, xavfsiz mehnat sharoiti tartibini saqlay bilishlari, ishchilarni mehnat intizomini saqlash va ishga rag'batlanish, ish unumini oshirish darajasini bir necha o'n yil oldindan ko'ra biluvchi shaxs bo'lishi lozim. Undan tashqari ma'muriyat zimmasiga yuklatiladigan majburiyatlar asosini, ishchilar bilan ma'muriyat o'rtasida tuziladigan mehnat bitimidir. Mehnat bitimini tuzish majburiyati O'zbekiston Davlatining Mehnat vazirligi tomonidan belgilangan bo'lib, qonuniyat sifatida quyidagicha tahlil qilinadi. Ishchilar ma'lum mutaxassisliklari bo'yicha belgilangan ishlarni, ushbu korxonaning ichki tartib qoidalariga rioya qilgan holda bajarishni ta'minlash, ma'muriyat o'z navbatida mehnat qonunlari asosida va jamoat bitimida ko'zda tutilgan ma'muriyatga tegishli majburiyatlarni so'zsiz bajarishni o'z zimmasiga oladi.

Mehnat qonunlarida ko'zda tutilgan majburiyatlar asosini quyidagilar tashkil etadi.

Har bir ishchi, xizmatchini mutaxassisligi va malakasiga qarab ma'lum mashina, jihoz va boshqalardan iborat ish joylarida, sog'lom va xavfsiz ish sharoiti yaratish maqsadida, sifatli ish qurollari, maxsus kiyim-bosh, shaxsiy himoya va gigiena vositalari bilan ta'minlash, mehnat intizomini har taraflama mustahkamlash, ishchilarni - xodimlarni ish sharoitlarini kundan-kunga yaxshilab

borishni ta'minlash maqsadida zarur texnik jihozlar o'rnatish, ularni doimiy ta'mirlab turish, shuningdek mehnatni muhofaza qilishning nomenklatura chora-tadbirlarini amalga oshirish ko'zda tutilgandir.

Korxonalarda mehnat sharoitini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar. Korxonalarining ish jarayonida jarohatlanish va kasbiy kasalliklarni kamaytirish davlat miqyosidagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, har yili qonun asosida mehnatni muhofaza etish masalalarini hal etish maqsadida, korxonalar rahbariyatlari, mehnat muhofazasi bo'limlari mutaxassisleri va kasaba uyushmalari bilan chora-tadbirlar belgilaydi.

- Baxtsiz hodisalarning oldini olish chora-tadbirlari: Bularga zaharli va engil alanganuvchi suyuqliklarni saqlash jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish, himoya moslamalari, to'siqlar, avtomatik himoya vositalari, signal moslamalari, masofadan boshqarish asboblari qo'shimcha o'rnatish va boshqarish kiradi.
- Kasb kasalliklarini oldini olish chora-tadbirlari: Ishchilarni har xil kasbiy zararlar ta'siridan himoyalovchi moslama, jihozlar tayyorlash, ishlab chiqarishga joriy etish, shamollatish moslamalarini o'rnatish va o'z vaqtida ta'mirlash, havo tarkibini tekshirib turish uchun asbob uskunalar olish, o'rnatish va boshqalar kiradi.
- Mehnat sharoitini umumiy yaxshilash chora-tadbirlari: Bunga mehnatni muhofaza qilish masalalarini yorituvchi va ko'rgazmali qurollar bilan jihozlangan xonalar, burchaklar tashkil qilish, ish joylarini umumiy yoritish, shovqin va tebranishlarga qarshi umumiy chora-tadbirlar, maxsus echinish, yuvinish, kir yuvish, kimyoviy tozalash, kiyimlarni maxsus tikish xonalarini tashkil etish kiradi.
- Mehnat sharoitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlariga: Ishlab chiqarishda yangi texnologik jarayonlarni tatbiq etish, korxonalarni umumiy ta'mirlash, korxona jamoasi, rahbarlari, tarmoq vazirliklari hamkorligida mehnatni muhofaza qilish, mehnat sharoitlarini yaxshilash va sanitariya-gigiena

chora-tadbirlarini ishlab chiqib tarmoq markaziy kasaba uyushmalari qo`mitalari bilan kelishilgan holda har yili ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Korxonada yuz beradigan baxtsiz hodisaga, uning birinchi rahbari va shu korxonaning bosh muhandisi bevosita javobgar hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF – 4947 sonli Farmoni. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.
2. Mirziyoyev. Sh. M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz ” Toshkent: “O'zbekiston” 2017-yil.
3. Карцер “Рисунок и Живопись”- М.; 2005
4. Ermilova. V. V. Композиция костюма. М. Академия. 2003
5. www.vogue.ru
6. BAZAAR № 2 2018 – 2019-yil (Журнал).
7. www.trendy.com
8. N.Mo'minov, F. Azimova,O. Shmigun. “ Marketing asoslari”. “Sharq” Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.
9. X.X.Kamilova, N.K.Hamrayeva “Tikuv buyumlarini konstruksiyalash”. - T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2011. Бердник Г.О.
10. Пармон Ф.М. Композиция костюма. Одежда обувь, аксессуары. –М: «Триада плюс»,2002.
11. Buxoro zardo'zlik san'ati. P.A Goncharova. Toshkent – 1986
- 12.G.K.Xasanbayeva, Shomansurova M. Maxsus “Kompozitsiya asoslari”. – T.: Yangi asr avlodi, 2008.
- 13.O'zbekisto
- 14.n Respublikasi madaniyat ishlari vazirligi Buxoro Davlat me'moriy-badiiy muzey-qo'riqxonasi. Toshkent – 2004
- 15.“Основы художественного проектирования одежды и эскизной графики костюма”.Ростов. Феникс. 2001 г.
- 16.Buxoro Davlat badiy-me'moriy muzey-qo'riqxonasi.
17. S
obirova Z fashion menijment darsligi
- 18.10. COLESIONE 2013 (Журнал).